



## O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI HUQUQLARINI QO'LLAB-QUVVATLANISHI

*Yuldosheva D.*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** abilitatsiya, integratsiyalash, protezlash, tiflotexnik vositalar'karreksiya, imo-  
ishora tili va reabilitatsiya muhtoj sudotarjima, surdotexnik vositalar.

**Ключевые слова:** абилитация, интеграция, протезирование, тифлотехнические средства,  
коррекция, язык жестов и реабилитация, перевод молока, методы языка жестов.

**Key words:** habilitation, integration, prosthetics, typhlotechnical means, correction, sign language  
and rehabilitation, milk translation, sign language techniques.

### **Резюме:**

Mazkur maqolada mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini qo'llab-  
quvvatlanishi, nogironligi bo'lgan shaxslarning munosib turmush kechirishi, jamiyat hayotida faol  
ishtrok etishi, o'z salohiyatini namoyish etish uchun sharoit yaratishi. Shu munosabat bilan xalqaro  
tamoyillar va milliy qununchilik tajribamizdan kelib chiqib nogironligi bo'lgan shaxslarning  
huquqlari va manfaatlarini himoyalash bo'yicha yangi qunun ishlab chiqish va qabul qilish  
zarurati yuzaga keldi. Qo'mitamiz tomonidan ishlab chiqilgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning  
huquqlari to'g'risida"gi yangi qonun loyihasida ana shunday ustuvor vazifalar o'z ifodasini topgan.

### **Резюме:**

В этой статье в нашей стране должны быть поддержаны права инвалидов, инвалиды долж-  
ны жить достойной жизнью, активно участвовать в жизни общества, создавать условия для  
проявления своего потенциала, который необходимо развивать и перенимать. Новый закон о  
защите прав и интересов инвалидов. Такие приоритеты выражены в новом проекте закона  
«О правах инвалидов», разработанном нашим комитетом.

### **Summary:**

In this article, the rights of persons with disabilities should be supported in our country, persons  
with disabilities should live a decent life, actively participate in the life of society, and create  
conditions for demonstrating their potential. there was a need to develop and adopt a new law on  
the protection of the rights and interests of persons with disabilities. Such priorities are reflected in  
the new draft law 'On the rights of persons with disabilities' developed by our committee.

Jamiyat taraqqiyoti bevosita unda yashayotgan insonlarning xatti-  
harakatiga bog'liq hisoblanadi. Jamiyatning har bir a'zosi uning taraqqiyotiga  
va farovonligigi o'zining hissasini qo'shishni xoxlaydi. Lekin xamisha ham

insonda xohish, istak va uni amalga oshirishdagi xatti-harakatlar bir-biriga mutanosib bo'lavermaydi. Jamiyat hayotida shunday bir insonlar borki, ular o'z imkoniyati va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun alohida etiborga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslardir. Nogironligi bo'lgan shaxslarga munosabatlar jamiyatning taraqqiy etib borishi jarayonida o'zgarib borgan.

Tug'ma xastalik yoki hayot davomida orttirilgan biror og'ir xastalik yoki favqulodda holatlar tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotgan inson o'zgalarning doimiy ko'magi mehr-e'tiboriga muhtoj bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun sayyoramizda nogironligi bo'lgan salkam bir milliardga yaqin shaxs hayot kechirmoqda. Yurtimizda ularning soni 670 ming nafardan ortiq. Mamlakatimizda aholining ushbu qatlamini ijtimoiy himoya qilish, keksalar, pensionerlar, nogironligi bo'lgan bolalar va kattalarga tibbiy-ijtimoiy yordamning barqaror tizimini yaratish ishlari jadal davom etmoqda.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash va himoya qilish masalalari O'zbekiston Respublikasining 200 dan ortiq (Konstitutsiya, 40 dan ortiq qonun, 160 dan ortiq qonunosti hujjatlari) normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida, ularning ijtimoiy yordam va himoyaga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta'minlanishini, nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish, ijtimoiy himoya qilish dasturlari amalga oshirilishini, ularning jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini ta'minlash bo'yicha aniq choralar ko'rilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmoni, 2018-yil 5-maydagi Farmon bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan Tadbirlar dasturi", 2020-yil 22-iyuldagi Farmon bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi"ni shular jumlasiga qo'shish mumkin.

Eng muhimi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2021-yil 22-fevralda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifini xalqaro hamjamiyat e'tiboriga havola etib, O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganini ta'kidlagan.



Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi qarori bilan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi fuqarolarga nafaqa tayinlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" tasdiqlanib, 2021-yil 1-avgustdan boshlab ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi fuqarolarga nafaqa tayinlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatila boshlangan.

Yoki, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Hukumat huzurida doimiy faoliyat yurituvchi Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash tashkil qilingan hamda 2021-yil 29-mayda Oliy Majlis Senatining majlisida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonun loyihasi muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017-yil 1-dekabrda tasdiqlangan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmonining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Qayd etilgan Farmonga muvofiq "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, bunda, nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning samaradorligiga alohida e'tibor qaratilib, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning bir qator asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda so'nggi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarga bo'lgane'taborkundankunga ortib bormoqda. Buning isboti sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarda muhim huquqiy asos bo'lmoqda. Mazkur hujjatda belgilangan chora-tadbirlar izchillik bilan hayotga tatbiq etilishi natijasida keyingi yillarda 64 ming nafar yolg'iz keksa, pensioner va nogironligi bo'lgan shaxs uйда tibbiy-ijtimoiy xizmat bilan qamrab olindi. Reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya buyumlariga muhtojlarga 100 ming dona shunday vosita etkazib berildi. Tibbiy-ijtimoiy muassasalarda 200 mld so'mlikdan ko'proq qurilish ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Xitoy ajratgan grant mablag'lari hisobiga Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyati nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya va protezlash

hududiy markazlariga 4,7 million dollarlik zamonaviy tashxislash va davolash asbob-uskunalari o'rnatildi. Shu bilan birga sohada echimini kutayotgan vazifalar ham talaygina. Jumladan, protezlash yo'nalishlari bo'yicha tizimli tarzda ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi sababli soha rivoji to'xtab qolgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmati bilan qamrab olish ko'rsatgichi juda past. Ya'ni har yili bor yo'g'i 3%dan ko'proq bemorga bu yo'nalishda tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Prezidentimizning shu yil 2-mart kuni qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida bu yo'nalishda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Avvalo zamon talabidan kelib chiqib, sohaning huquqiy asosini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Shuni aytish kerakki, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tog'risida"gi yangi tahrirdagi qonun qabul qilganiga. Mazkur hujjatda nogironlikka, asosan, tibbiy tushuncha sifatida yondashilib, bunday insonning jamiyatga faol integratsiyalashuvini ta'minlash borasida huquqiy asoslar etarli darajada aks ettirilmagan. Vaqt o'tishi bilan sohaga yangicha yondashuvlar kirib kelmoqda. Masalan, BMT ning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasi tatbiq etildi. Bundan maqsad, nogironligi bo'lgan shaxslarning munosib turmush kechirishi, jamiyat hayotida faol ishtrok etishi, o'z salohiyatini namoyish etish uchun sharoit yaratishdir. Shu munosabat bilan xalqaro tamoyillar va milliy qonunchilik tajribamizdan kelib chiqib nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoyalash bo'yicha yangi qonun ishlab chiqish va qabul qilish zarurati yuzaga keldi. Qo'mitamiz tomonidan ishlab chiqilgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi yangi qonun loyihasida ana shunday ustuvor vazifalar o'z ifodasini topgan. Loyihada BMT ning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablaridan kelib chiqib, nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini muhofazalash sohasida zamonaviy uslublar, xalqaro standartlarni joriy etish masalalariga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, milliy qonunchilikda "nogironlik" belgisi bo'yicha kamsitish, nogironligi bo'lgan shaxslarning nodavlat-notijorat tashkilotlari, protezortopedik buyumlari, abilitatsiya, sutdotarjima, surdotexnik vositalar, tiflotexnik vositalar kabi yangi tushunchalar birinchi marta aks ettirilmogda. Xususan, nogironlik-kassalik, shukastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar





Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini himoya qiladigan ko'plab qonun hujjatlarini, dasturlarini ishlab chiqmoqda va ijtimoiy hayotga keng targ'ib qilib kelmoqda. Demak, xulasa qilish mumkimki davlatimiz tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga qaratayotgan e'tabori yuqoridagi so'zlarning isboti. Amalga oshirilayotgan va qilinayotgan sa'y-harakatlardan asosiy va dolzarb masala nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga, hayotga integratsiyalashuvini yana ham faollashtirish, ularni huquqlarini himoya qilish. Asosiy maqsad, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va jamiyatimizda inson huquqlari va manfaatlari muhofazasiga oid chora-tadbirlarni kuchaytirish va kengaytirish hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. TureYonson -"Inklyuzivta'lim"- Opereyshen Mersiy", Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. Roy MarknKonki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlar qondirish" Toshkent-YUNESKO-2004yil. .
3. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" tomonidan chop etilgan -2002 yil.